

Date: 23rd June-2026

**SHEZOFRENIYA VA ALZGEYMER KASALLIKLARIDA XOTIRA BUZILISHI
VA TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI**

Boymanova Nargiza Abdimurod qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi,

email:nargizabaymanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shezofreniya va Alzgeymer kasalliklarining o'quvchilar xotirasi va ta'lim jarayoniga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Kasalliklarning asosiy alomatleri, ularning psixologik va pedagogik oqibatleri tahlil qilingan. Shuningdek, bunday o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchilarning individual yondashuvi, moslashtirilgan metodlar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada Abu Ali ibn Sino qarashlariga tayangan holda, ruhiy kasalliklarning inson miyasiga ta'siri haqida ham ilmiy xulosalar keltirilgan

Kalit so'zlar: Shezofreniya, Alzgeymer, xotira, psixologik yondashuv, pedagogik metod, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние шизофрении и болезни Альцгеймера на память учащихся и процесс обучения. Анализируются основные симптомы этих заболеваний, их психологические и педагогические последствия. Особое внимание уделено индивидуальному подходу преподавателя, использованию адаптированных методов и наглядных материалов в образовательном процессе. На основе идей Абу Али ибн Сины также приведены научные выводы о влиянии психических заболеваний на мозг человека.

Ключевые слова: шизофрения, болезнь Альцгеймера, память, психологический подход, педагогические методы, процесс обучения.

Annotation: This article explores the impact of schizophrenia and Alzheimer's disease on students' memory and the learning process. It analyzes the main symptoms of these disorders and their psychological and pedagogical consequences. Special attention is given to the teacher's individual approach, the use of adapted methods, and visual materials in the learning process. Based on Abu Ali Ibn Sina's ideas, the paper also presents scientific conclusions about the effects of mental illnesses on the human brain.

Keywords: schizophrenia, Alzheimer's disease, memory, psychological approach, pedagogical methods, learning process.

Psixologik kasalliklar inson miyasidagi asab tizimi faoliyatining buzilishi natijasida paydo bo'ladigan, fikrlash, hissiyot, xotira, idrok va xulq-atvorga ta'sir ko'rsatadigan kasalliklardir. Inson hayotida xotira muhim o'rin tutadi, chunki u orqali biz o'rgangan bilim va tajribalarni saqlaymiz hamda kundalik hayotda foydalanamiz.

Shezofreniya va Alzgeymer kasalliklari inson xotirasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu kasalliklarda miya faoliyati susayadi, diqqat, tafakkur va o'qish qobiliyatida muammolar



Date: 23rd June-2026

paydo bo'ladi. Natijada o'quvchi yoki talaba ma'lumotlarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch keladi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ruhiy kasalliklarga chalingan insonlar soni ortib bormoqda. Shuning uchun bu kasalliklarning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganish va ularga yordam berish yo'llarini topish muhim ahamiyatga ega.

Maqsad — Shezofreniya va Alzgeymer kasalliklarida xotira buzilishining o'quv jarayoniga qanday ta'sir qilishini aniqlash.

Vazifalar — bu kasalliklarning belgilari, sabablari va ta'limdagi muammolarini tahlil qilish hamda ularni kamaytirish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Ruhiy kasalliklar insoniyat tarixida qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan. Dastlab odamlar bunday kasalliklarni jin, yovuz ruh yoki ilohiy jazo deb hisoblaganlar. Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim davrida bu kasalliklarni diniy marosimlar, duo o'qish yoki jazolash yo'li bilan davolashga urinishgan.

Miloddan avvalgi IV asrda buyuk yunon tabibi Gippokrat birinchilardan bo'lib, ruhiy kasalliklarning sababi miya faoliyatidagi buzilishlar ekanini aytgan. U ruhiy holatlarni "miya suyuqliklari muvozanati" bilan bog'lagan va davolash uchun dam olish, sog'lom ovqatlanish, musiqiy terapiyani tavsiya qilgan.

O'rta asrlarda ruhiy kasalliklarga nisbatan munosabat yana diniy tus olgan — bemorlarni jin urgan deb hisoblab, monastirlarda yoki zindonlarda izolyatsiya qilishgan. Buyuk allomamiz Abu Ali ibn Sino inson miyasining faoliyati va ruhiy jarayonlarga oid fikrlarni o'zining mashhur "Tib qonunlari" ("Al -Qonun fi't-tibb") asarida bayon etgan. U o'sha davridayoq ruhiy kasalliklarning sababi miya faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bo'g'liq ekanini ta'kidlagan.

XVIII–XIX asrlarda esa ilmiy yondashuv paydo bo'la boshladi. Fransuz shifokori Filipp Pinel (1745–1826) ruhiy kasalliklarga insonparvarlik bilan munosabatda bo'lishni ilgari surdi. U bemorlarni zanjirdan ozod qilgan va psixiatriya tarixida insoniy munosabatning boshlanishiga sababchi bo'lgan. Xotira buzilishlari ko'pgina psixik kasalliklarning markaziy simptomi hisoblanadi. Shu jumladan shezofreniya kasalligiga to'xtaladigan bo'lsak bu kasallik surunkali, jiddiy psixik kasallik bo'lib, insonning ijtimoiy, kognitiv va emotsional faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Asosan 18 yoshdan 30 yosh oralig'idagi insonlarda uchraydi. Galutsinatsiya ya'ni ko'rish, eshitish, hidlash galutsinatsiyalari va bu galutsinatsiyalar natijasida xulqning buzilishi passivlik, motivatsiyaning pasayishi ijtimoiy faollikning kamayishi, e'tibor, fikrlash, xotira, qaror qabul qilish qobiliyatlarning sustlashishi, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar bu kasallikning simptomlari hisoblanadi. Xo'sh bu psixik kasallikka sabab bo'luvchi omillar qaysilar?

- **Genetik omillar**-genetik moyillik kasalligi sifatida tanilgan bu kasallik otanasi yoki qarindoshlarida bu kasallik bo'lsa xavf yuqori bo'ladi, genlar dopamin va glutamat tizimlariga ta'sir qiladi bu esa miyada sinoptik uzatish va axborotni qayta ishlashni o'zgartiradi.



Date: 23rd June-2026

- **Neyrobiologik omillar**-dopamin ortiqcha bo'lsa galutsinatsiya kuchayadi yetishmasa e'tibor va motivatsiya kamayadi .Glutamat retseptorining buzilishi natijasida kognitiv funksiyalar, fikrlash va xotira sustlashadi. Frontal-temporal korteks artofiyada qaror qabul qilish mantiqiy fikrlash qobilyati buziladi.

- **Atrof muhit omillari**-homladorlik davridagi infeksiyalar, oziq-ovqat yetishmovchiligi, kuchli stress kasallik xavfini oshiradi. Bolalik va o'smirlik davridagi psixologik travmalar, ijtimoiy stress, giyohvandlik, madaniy va ijtimoiy muhit, izolyatsiya yoki kuchli bosim xavfni yanada oshiradi.

Bu kasallik jarayonida inson miyasida bir qancha o'zgarishlar yuzaga keladi. Xususan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki shezofreniyaga chalingan insonlarda miya hajmi so'g'lom odamlarnikiga qaraganda biroz kichrayadi. Ayniqsa oldingi peshona bo'lagi (frontal lob) va gimokamp ya'ni xotira markazi sohalarida kichrayish kuzatiladi. Shezofreniya kasalligi talaba va o'quvchilarni bilim olish va xotira qobilyatiga bevosita salbiy ta'sir qiladi. Diqqat va e'tibor kamayadi shu sababli yangi ma'lumotlarni tez va samarali o'zlashtira olmaydi. Xotiraning buzilishi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Ijtimoiy passivlik va motivatsiyaning pasayishi o'quv jarayonida faol qatnashishga to'sqinlik qiladi. Bu jarayonda kasallikni davolashdan ko'ra, uni oldini olish choralari muhim hisoblanadi. Dastavval dorivor davolash ya'ni antipsixotiklar simptomlarni kamaytiradi va miya faoliyatini barqarorlashtiradi. Psixoterapiya jarayonida kognitiv terapiya xotira mashqlari va diqqatni rivojlantirish amalga oshiriladi. Individual o'quv rejasi, ko'rgazmali materiallar, takrorlash texnologiyalari pedagogik yondoshuvda foydalaniladi. Oilaviy va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Alzgeymer kasalligi surunkali progressiv neyrodegenerativ kasallik hisoblanib, miyadagi neyronlar asta-sekin nobud bo'ladi, ularning o'rnida bo'shliq (artofiya) hosil bo'ladi. Natijada miya hajmi keskin kichrayadi. Bu kasallikda xotira butunlay yo'qolishi, fikrlash sekinlashuvi va shaxs o'zini tanimaslik kuzatiladi. Kasallik ko'pincha 60, 65 yoshdan kiyin boshlanadi, lekin irsiy shakllarida yoshroq insonlarda ham kasallanish kuzatiladi va bunda kasallik tez rivojlanishi aniqlangan. Bu kasallik ilk bor 1906-yil nemis psixiatri Alois Alzheimer tomonidan aniqlangan va ko'p hollarda o'lim bilan yakunlanishi tufayli u hali ham dunyo olimlarining e'tibor markazida turibdi. Tadqiqotlarda qaraganda bu kasallik ayollarda ko'proq uchraydi va kuchli rashk ham kasallikni keltirib chiqarishi aniqlangan. Asosiy belgilari qisqa muddatli xotiraning susayishi (yangi ma'lumotlarni eslab qolish qiyinlashishi, uzoq muddatli xotiraning asta sekin buzilishi , til, qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash qobilyatining pasayishi, ijtimoiy faoliyat va mustaqillik darajasining pasayishi sodir bo'ladi. Alzgeymer kasalligi ko'p omillarning murakkab o'zaro ta'sirida yuzaga keladi. Bular quyidagilar hisoblanadi.

- **Genetik omillar** -APOE-e geni kasallik xavfini oshiradi qolaversa oilaviy moyillik ham kasallikni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Date: 23rd June-2026

Neyrobiologik omillar-Amiloid blyashkalar tau-proteinlar neyronlar orasidagi signal uzatishni buzadi, neyronlarni nobud qiladi. Atsetilxolin yetishmasligi xotira va o'rganish qobilyatini pasaytiradi,

- diabet kabi surunkali kasalliklar xavfni oshiradi. Aqliy mashqlar ijtimoiy faoliyat yetishmovchiligi esa kasallik rivojlanishini tezlashtiradi. Gippokamp atofiya xotira buzulishi yangi bilimlarni o'zlashtirishning pasayishi, kortikal kamayish frontal va temporal loblarda neyronlar nobud bo'lish, fikrlash va qaror qabul qilish qobilyatining susayishi kabi holatlar alzgeymerdagi o'zgarishlar hisoblanadi. Bu jarayon o'z navbatida ta'lim olishga ham o'z ta'sirini o'tkizmasdan qolmaydi. Xususan qisqa muddatli xotiraning buzilishi sababli yangi ma'lumotlarni eslab qolish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish qiyinlashadi. Kognitiv pasayish, diqqat va e'tibor sustlashuvi o'quv jarayonini sekinlashtiradi. Ijtimoiy faoliyatning kamayishi talabaniy sinf va guruh ishlarida faol qatnashishni cheklaydi.

Oldini olish va yordam choralari:

- **Sog'lom turmush tarzi**- jismoniy mashqlar, aqliy mashqlar, sog'lom ovqatlanish
- **Davolanish**- atsetilxonlinesteraza memantine simptomlarni yengillashtiradi.
- **Ijtimoiy va pedagogik qo'llab- quvvatlash**: individual o'quv rejasi, ko'rgazmali materiallar, takrorlash texnikalari,
- **Stressni kamaytirish**-meditatsiya, psixologik maslahatlar oldini olish va yordam choralaridir.

Ming afsuski hozirgi kunda shezofreniya va alzgeymir kabi kasalliklariga chalingan insonlar soni ko'paymoqda. Ular bunday kasalliklar natijasida o'z sevgan kasblarini tashlab ketishadi, davom ettira olmaydilar. Shunday ekan, bunday shaxslarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, ularning imkoniyatlarini to'g'ri baholash va mos o'quv metodlarini qo'llash har bir pedagogning dolzarb vazifasidir. Shezofreniya va Alzgeymer kasalliklariga chalingan o'quvchilar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondoshuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'quvchilar ko'pincha diqqatni jamlay olmaslik, eslab qolishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuvdagi muammolarga duch keladi. Shu sababli ularning ta'lim jarayonida maxsus metodlar va moslashtirilgan o'quv sharoitlari zarur.

O'qituvchi bunday o'quvchilar bilan ishlashda quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

- Har bir o'quvchining ruhiy holatini inobatga olish;
- O'quv materialini sodda, aniq va qisqa shaklda tushuntirish;
- Ko'rgazmali vositalar va interfaol metodlardan foydalanish;
- Dars davomida qisqa tanaffuslar berish;
- Takrorlash va mashq asosida o'qitish;
- Rag'batlantirish va ijobiy motivatsiyani kuchaytirish;

Shuningdek, o'qituvchining o'zini tutishi, ohangdor nutqi, sabrli va mehribon munosabati bunday o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Talim jarayonida



Date: 23rd June-2026



o'quvchining kichik yutuqlarini qadrlash, uni sinfdagi faoliyatga jalb etish muhim tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ruhiy kasalliklarga chalingan insonlar faqat tibbiy yoki psixologik yordamga emas, balki ijtimoiy qo'llab quvvatlashga ham muhtojdir. Oila muhitida mehr, e'tibor va sabr muhim o'rin tutadi. Ota -onalar farzandining holatini to'g'ri tushunib, uni har tomonlama rag'batlantirsa, bu o'quvchi o'zini ruhiy jihatdan ijobiy his etadi va o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Jamiyat ham bu borada muhim o'rin egallaydi. Maxsus maktablar, inklyuziv ta'lim muassasalari, psixologik markazlar faoliyatini kuchaytirish, ruhiy salomatlik bo'yicha aholiga ma'lumot berish kasallikning ijtimoiy oqibatlarini kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, shezofreniya va Alzgeymer kasalliklarida xotira buzilishi ta'lim jarayonida jiddiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois o'qituvchilar, psixologlar va oilalar bunday o'quvchilarga nisbatan sabrli, individual va tizimli yondashuvni amalga oshirishi lozim. Pedagogik jarayonni moslashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam ko'rsatish — bu kasalliklarga chalingan shaxslarning hayot sifatini yaxshilashda muhim omillardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Karimova, N. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Hasanov, M. Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari. – Samarqand, 2020.
5. World Health Organization (WHO). Mental health and neurological disorders report. – Geneva, 2022.
6. Alzheimer's Association. Understanding Alzheimer's Disease. – Chicago, 2023.
7. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). – Washington DC, 2022.
8. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
9. Davlatova, G. Ruhiy salomatlik va ta'lim jarayoni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
10. Yusufova, D. Inson miyasi va kognitiv faoliyat. – Toshkent, 2023.